

2/2025,  
mart-  
aprel  
(№ 00076)



## **YASHIL IQTISODIYOT MEXANIZMLARINI MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRINI QO'LLASHDA XORIJ TAJRIBALARI**

**Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li**

*Ma'mun universiteti NTM Buxgalteriya hisobi va Biznes boshqaruvi kafedrası o'qituvchisi*

*E-mail: [jumaniyozov\\_feruzbek@mamunedu.uz](mailto:jumaniyozov_feruzbek@mamunedu.uz)*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss2/659](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss2/659)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola yashil iqtisodiyotni shakllantirish va uni mamlakatda joriy qilish orqali uni mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishga erishish bilan bog'liq xorijiy tajribalarga aloqador nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish va o'rganilgan xorijiy tajribalarni tadbiiq qilishda O'zbekiston mintaqalarining lokal xususiyatlarini hisobga olish, bunda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhit musaffoligini saqlab qolish va aholi salomatligini mustahkamlash singari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratish zarurligiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil energiya, yashil o'sish, IES, barqaror iqtisodiy o'sish, mintaqaviy iqtisodiyot, yashil texnologiya.

### **Аннотация**

Статья посвящена изучению теоретических и практических знаний, связанных с зарубежным опытом формирования и внедрения зеленой экономики в стране, а также необходимости учета местных особенностей регионов Узбекистана при внедрении изученного зарубежного опыта, уделяя особое внимание основным направлениям развития зеленой экономики, таким как использование возобновляемых источников энергии, повышение энергоэффективности, сокращение выбросов парниковых газов, поддержание чистоты окружающей среды, укрепление здоровья населения.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленая энергетика, зеленый рост, тепловые электростанции, устойчивый экономический рост, региональная экономика, зеленые технологии.

### **Abstract**

This article is devoted to the study of theoretical and practical knowledge related to foreign experiences in the formation and implementation of a green economy in the country, and the need to take into account the local characteristics of the regions of Uzbekistan when implementing the learned foreign experiences, focusing on the main areas of green economy development, such as the use of renewable energy sources, increasing energy efficiency, reducing greenhouse gas emissions, maintaining environmental cleanliness, and strengthening the health of the population.

**Key words:** green economy, green energy, green growth, thermal power plants, sustainable economic growth, regional economy, green technology.

## **Kirish**

Har qanday mamlakatda va uning mintaqalarida inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, ya’ni iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag’batlantirish va retsessiyani oldini olish yoki undan tezroq chiqib ketish imkonini beradi. Bunga yaqqol misol sifatida “O‘zbekistonda bir dehqon 10-13 ta odamni boqayotgan bir paytda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tgan “yashil” davlatlar – Shvetsiya, Finlyandiya va Janubiy Koreyada 1 dehqon 50-60 ta odamni boqmoqda”[1].

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

S.Q. Qahhorovning “Muqobil energiya manbalari” o‘quv qo‘llanmasida tiklanadigan energiya iste’molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan.[2]

M. M. Davletova o‘zining “Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi” nomli tadqiqot ishida Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy-kon-septual asoslarini, shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari, xorijiy tajribani Markaziy Osiyo davlatlarida qo‘llash masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan[3].

Y. A. Lyaskovskaya, K. M. Grigorevalarning “Yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tishning hududiy imkoniyatlari diagnostikasi” maqolasida yashil iqtisodiyot va yashil o‘shishning asosiy konsepsiyasi, yashil innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotning barqaror o‘shishga ta’siri, xorijiy mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tishning tajribasi tahlil qilingan[4].

A. M. Rodrigues “Barqaror o‘shish muammolari kontekstida yashil iqtisodiyot” nomli tadqiqot ishida iqtisodiyot va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlari hamda ularning holati, ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiyot asosini tashkil etishi asoslangan, yashil iqtisodiyot genezisi va uning moliyaviy inqirozlar oqibatida tobora keskinlashayotgan ekologik muammolarni bartaraf qilishdagi ahamiyati, yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni har tomonlama chuqur tadqiq qilish natijasida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlarni yaratish yo‘llarini, barqaror rivojlanishda iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning ahamiyatini tadqiq etgan[5].

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada muayyan hodisalarni kuzatish va o‘rganish, tajriba o‘tkazish, shuningdek, tajriba asosida qo‘lga kiritilgan natijalarni umumlashtirish, tasniflash hamda ularni insonning amaliy faoliyatiga joriy etish bilan bog‘liq empirik tadqiqot muhim o‘rin egallaydi. Asosan, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarning tajribasi tahlilida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

## **Tahlillar va asosiy natijalar**

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va global isish, tuproq tabiiy unumdorligini pasayib ketayotganligi, bioxilma-xillikni kamayib ketayotganligi, tabiiy kapital zaxiralarining tugab borayotganligi, ichimlik suvi tanqisligi, atrof-muhitni ifloslanishi, oziq-ovqat inqirozi, energiya muammosi, qayta tiklanadigan energiya iste’moliga ommaviy o‘tish, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari normadan yuqoriligi va boshqalar asosiy ekologik muammolar hisoblandi. Bu muammolarni maksimal darajada hal qilish uchun “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish zarur [6].

O‘zbekistonda 2021-yilda elektr energetika tarmog‘ida qazib olinadigan yoqilg‘ida ishlovchi elektr stansiyalar (IES) ulushi 90 foiz atrofida bo‘lgan (10 foizi GESlar), va 2023-yilning aprel – iyul oylarida elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun IESlarda 5 mlrd 60 mln


kub metr tabiiy gaz, 86,5 ming tonna mazut, 1 mln 608 ming tonna ko‘mir yoqilg‘isi ishlatilgan. Asosan ushbu yo‘nalishda elektr energiyasini generatsiya qilish tabiiyki atrof muhitni ifloslantiruvchi asosiy omil hisoblanadi, chunki CO2 gazlari emissiyasining yuqori ulushi asosan IES hisobiga to‘g‘ri keladi[7]. Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekiston hududidagi barcha konlarda gaz o‘rtacha 1000 metr chuqurlikda o‘zini yuqori bosimi bilan chiqqan va bugungi kunga kelib ushbu ko‘rsatgich 4000 metrdan 6000metrgacha bo‘lgan masofada compressor stansiyalari orqali so‘rib olinmoqda.

2030-yilga qadar “yashil” elektr stansiyalar ishga tushirib borilishi hisobiga umumiy ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 40 foizdan ortig‘i quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri kelishi rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilingani ham bejizga emas. Ayni yuqoridagi va unga o‘xshash muammolarni bartaraf qilish va istiqboldagi rejalarni amalga oshirishda aynan ushbu model ijobiy ta‘sir doirasiga ega va uni rivojlantirishda xorij tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu maqolaning asosiy markazida ham iqtisodiy xavfsizlikning muhim komponenti hisoblangan “energetika xavfsizligi”ni ta‘minlashda muvaffaqiyatli tajribalarni amalda qo‘llagan mamlakatlar usullari tahlil qilinadi.

Nazariy jihatdan tahlil qilinganida shular ma‘lum bo‘ldiki, tabiatda energiyaning umumiy ikkita turi mavjud: qayta tiklanadigan energiya va qayta tiklanmaydigan energiya. Bugungi kunda mamlakatda va uning mintaqalarida energetika xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishi sifatida markazda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan optimal foydalanish masalasi turadi. **Qayta tiklanuvchi energiya** — bu tabiiy resurslar asosida ishlab chiqariladigan energiya manbalari bo‘lib, ular an‘anaviy yo‘llar bilan ishlab chiqarilgan energiyaga nisbatan atrof-muhitga kam zarar yetkazadi va tabiiy resurslarni qayta tiklash imkoniyatiga ega.



**1-rasm. Yer yuzida mavjud energiya turlari<sup>1</sup>**

O‘zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanishning foydaliligi turli omillarga, jumladan, tabiiy resurslarga, iqtisodiy imkoniyatlarga va texnologik infratuzilmalarga bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida quyidagi muqobil energiya manbalaridan foydalanish ayniqsa foydali hisoblanadi:

- quyosh energiyasi


- *shamol energiyasi*
- *biomassa energiyasi*
- *geotermal energiya*
- *gidro energiya*

Ilmiy ish davomida aynan ushbu manbalardan samarali foydalanishda dunyoda ushbu sohalarida energetika generatsiyasi borasida yetakchi mamlakatlar tahlil qilinadi va ushbu bosqichga yetib kelishdagi asosiy omillar o‘rganiladi.

Bugungi kunda yer yuzida asosan Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan yuqori darajada foydalanayotgan mamlakatlar Xitoy(1453gvt), AQSH (388gvt), Brazilya (194 gvt), Germaniya (176 gvt), Hindiston (167 gvt), Yaponiyadir (127 gvt), Kanada (109 gvt), Ispaniya (80 gvt), Fransiya (69 gvt) va Italiya (65 gvt)ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar bu sohada jahon YalMni shakllantirishda alohida o‘rinda turadi.

**1-jadval**

### **Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini eng ko‘p o‘zlashtiruvchi davlatlar(2023)<sup>2</sup>**



Yuqoridagi mamlakatlarni tahlil qilish natijasida asosan, davlat va xususiy sherikchilikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi natijasida yuz bergan. Chunki ushbu mamlakatlarda amalga oshirilgan institutsional islohotlarni va reformalarni qo‘llash orqali amalga oshirilgan.

Xitoy tajribasida 2020-yilda elektr energiyasining 15 foizini qayta tiklanadigan manbalardan olish va iqtisodiyotning uglerod zichligini 45 foizga kamaytirish rejalashtirilgan edi. Xitoy yashil texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha jadal qadam tashlagan davlatlardan biri hisoblanadi. Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, chiqindilardan energiya ishlab chiqaruvchi va oqova suvlarni qayta ishlovchi zamonaviy korxonalar mamlakatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy energiya tejash va qayta tiklanadigan energiya bilan bog‘liq texnologiyalarga davlat sarmoyalarini AQSh va Yevropa Ittifoqiga qaraganda bir necha baravar ko‘proq yo‘naltirmoqda.

AQSh tajribasiga e‘tibor qaratsa, 1997-yildan jadal boshlangan harakatlardan biri sifatida “1 million quyoshli tomlar” dasturi qabul qilingan. 2030-yilga kelib, quyosh qurilmalari mamlakat energiya iste‘molining 65 foizini ta‘minlashi kutilmoqda. Davlat organlariga ushbu maqsadga erishish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi

yuklangan. Davlat rahbari ma’lum vaqt davomida nafaqat atrof-muhit holatini yaxshilash, balki ish o’rinlarini yaratish uchun toza texnologiyalarga sarmoya kiritish rejasini e’lon qilgan edi.

Germaniya 1990-yillarning boshida qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqishni boshladi. 1991-yilda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi bilan ta’minlash to’g’risida”gi qonun kuchga kirdi, uning o’rniga 2000-yilda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ustuvorligi to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Har ikkala qonunchilik hujjatining asosini qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun majburiy to’lash tamoyili tashkil etadi. Ushbu qonun yangi binolarning egalarini qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda isitish ehtiyojlarining bir qismini qoplashni talab qiladi. **Bu 2009 yil 1 yanvardan keyin qurilgan turar-joy va noturar binolarga tegishli.** 2020-yilga kelib turar-joy va noturarjoy sektorlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minlashda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ulushi 14 foizga yetkazilgan.[8]

Bugungi kunda Hindiston COVID-19 ning iqtisodiy inqirozini oldini olish uchun fond shakllantirish maqsadida neft va gazga soliq miqdorlarini oshirish amaliyotini qo’lladi. Lekin, ko’plab mamlakatlar islohotlar uchun bu yo’lni tanlashi mumkin edi. Masalan, benzin va dizel yoqilg’isining har bir litri uchun 12,5 sentlik soliq dunyo miqyosida kuniga 1 mlrd. dollarni tashkil qila oldi[9]

#### **Xulosa va takliflar**

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, O’zbekiston mintaqalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishning foydaliligi turli omillarga, jumladan, tabiiy resurslarga, iqtisodiy imkoniyatlarga va texnologik infratuzilmalarga bog’liq. O’zbekiston sharoitida quyidagi muqobil energiya manbalaridan foydalanish ayniqsa foydali hisoblanadi:

**Quyosh energiyasi.** O’zbekiston sharoitida quyosh energiyasidan foydalanish juda qulay hisoblanadi chunki, mamlakatning ko’p qismini quruq va issiq iqlim hudud (Xorazm, Qoraqalpog’iston, Buxoro, Navoiy)lari tashkil qiladi va o’rtacha 280-300 kun atrofida quyosh nurini sochadi.

**Shamol energiyasi.** Tekisliklar, cho’l hududlari va dengiz qirg’oqlari shamol energetikasi uchun eng mos joylardir. Mamlakatning ba’zi hududlarida, ayniqsa Qoraqalpog’iston, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida, shamol tezligi yuqori bo’lib, shamol turbinalarini o’rnatish uchun ideal sharoitlar mavjud.

**Biomassa energiyasi.** O’zbekistonning qishloq xo’jalik sektori katta o’lchamdagi biomassa resurslarini yaratadi, masalan, paxta tolasini, qishloq xo’jaligi chiqindilarini va boshqa organik materiallarni biomassa sifatida ishlatish mumkin. Biomassadan energiya olish nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki bu sohada iqtisodiy o’sish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

**Geotermal energiya.** O’zbekistonda ham geothermal energiyadan foydalanish imkoniyatlari mavjud sababi bilamizki *geotermal energiya* bu yer ichki qismidagi tabiiy issiqlikdan hosil bo’ladigan energiya turi. Uning asosiy manbai yer yadrosidagi radioaktiv parchalanish, magmaning harorati va issiq yer osti suvlarining aylanishi. Aynan uchinchi manbasi ya’ni issiq yerosti suvlari ayrim mintaqalarimizda Farg’ona, Surxondaryo, Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida issiq buloqlar aniqlangan ularning ayrimlarini harorati 40°Cdan baland bo’lgan.

**Gidroenergetika.** O'zbekistonda 30 dan ortiq kichik va o'rta daryolar mavjud, bu esa kichik gidroelektr stansiyalarni qurish uchun imkoniyatlar yaratadi. Kichik gidroelektr stansiyalari mahalliy energiya manbalari sifatida qishloq joylarda foydalidir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekiston energetika generatsiyasi ulushida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan quyidagilar taklif qilinadi:

Soliq islohotlarini joriy qilish – uglerod solig'i, energiya solig'i, ifloslanish solig'i

Subsidiyalar – venchur loyihalariga subsidiyalar, elektromobilda haraklanish uchun subsidiya

Yashil sertifikatlash tizimi

Grantlar – yashil mahsulot ishlab chiqaruvchilarga, yashil texnologiyalarni yartuvchilarga, yashil loyihalarga

Ta'lim – oliygo'hlarda yashil iqtisodiyot mutaxassisligini joriy qilish

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Вестник (2021) Экологические проблемы Узбекистана. <https://evolelium.com>
2. Qahhorov S.Q. (2022). Muqobil energiya manbalari. O'quv qo'llanma. – T.: “Tafakkur avlodi”, B.10.
3. M.M.Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM.pdf>.
4. Лясковская Е. А., Григорьева К.М. Диагностика региональных возможностей перехода на модель “зеленой экономики”. <https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-regionalnyh-vozmozhnostey-perehoda-na-model-zele-noy-ekonomiki>).
5. Аврора Матеос Родригес “Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomi-ka-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>.
6. Abdurahmonova G.K., Bo'taboyev M.T. (2023). Yashil iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: “Ilm-ma'rifat”, B.138.
7. <https://minenergy.uz/>
8. Давыдова А. Зеленые приоритеты Германии. – Режим доступа: <http://bellona.ru/2010/05/05/zelenye-prioritety-germanii/>.
9. Peter Wooders , Tom Moerenhout. How to raise an easy \$1 billion per day for the COVID-19 recovery. <https://cf.iisd.net/gsi/subsidy-watch-blog/fuel-tax-covid-19-recovery>